



Asosiy tarkib



Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **6 077,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **7,0 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **776,3** mlrd. so'mni (**23,4 %** ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **5 300,7** mlrd. so'mni (**13,6 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 052,2** mlrd. so'mni (**45,7 %** ga oshdi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






UMUMIY MA'LUMOT

2021- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **6 077,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **107,0** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida barcha shahar va tumanlarda o'sish sur'ati kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **87,2** % va yirik korxonalar hissasiga **12,8** % to'g'ri keldi.




ENG YUQORI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **33,4** % ulush bilan **2 032,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush Tuproqqal'a tumanida **1,9** % ulush bilan **117,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keldi. Mazkur hajm 2021- yil yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, **5 300,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **13,6 %** ga o'sgan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **87,2 %** ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqal'a (99,8 %), Yangiariq (99,4 %), Bog'ot (99,2 %) va Gurlan (98,7 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish sur'atlari kuzatildi.



Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2020- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	6 077 008,9	107,0	776 271,9	76,6	5 300 737,0	113,6
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	2 032 218,3	101,2	631 706,7	75,0	1 400 511,6	120,0
Xiva	242 228,4	104,2	14 231,9	86,2	227 996,6	105,6
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	334 931,8	113,9	2 835,5	18,0	332 096,3	119,4
Gurlan	535 950,1	113,5	7 034,2	87,3	528 915,9	113,9
Qo'shko'pir	258 533,8	107,6	13 252,1	120,7	245 281,6	107,0
Urganch	574 081,8	106,5	35 654,7	91,4	538 427,1	107,7
Hazorasp	627 750,6	113,8	35 529,5	2,3 m.	592 221,2	110,5
Tuproqqal'a	117 923,7	112,1	271,7	2,0 m.	117 652,0	112,0
Xonqa	365 929,8	110,1	15 820,2	39,9	350 109,6	119,6
Xiva	169 015,1	102,3	3 220,1	108,0	165 795,0	102,3
Shovot	394 628,0	114,2	6 749,5	42,6	387 878,4	117,7
Yangiariq	270 627,9	105,4	1 601,0	28,9	269 026,8	107,1
Yangibozor	153 189,6	111,3	8 364,8	5,0 m.	144 824,8	106,6

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **23,4 %** ga kamaydi va **776,3** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **12,8 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **5 300,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **13,6 %** ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **87,2 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (99,8 %), Yangiariq (99,4 %) va Bog'ot (99,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahrida (31,1 %), Urganch tumanida (6,2 %) va Xiva shahrida (5,9 %) kuzatildi.





**XORAZM VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

2021- yil yanvar-avgust oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 200,4** ming so'mni (2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **5,4** % ga oshdi) tashkil qildi. Yuqori o'sish sur'ati Shovot (112,6%), Gurlan (112,1 %), Bog'ot (112,0%), Hazorasp (112,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Ushbu ko'rsatkichlar hududlar kesimida solishtirilganda, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasida yuqori hajmlar Urganch shahri (13 996,0 ming so'm), Gurlan (3 575,4 ming so'm) va Hazorasp (3 197,9 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**XORAZM VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**



**XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar-avgust**

	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	3 200,4	105,4
<i>shaharlar:</i>		
Urganch	13 996,0	100,4
Xiva	2 582,4	102,5
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	2 004,4	112,0
Gurlan	3 575,4	112,1
Qo'shko'pir	1 485,0	106,2
Urganch	2 839,2	104,5
Hazorasp	3 197,9	112,0
Tuproqqal'a	2 117,1	110,9
Xonqa	1 937,2	108,4
Xiva	1 144,3	100,6
Shovot	2 293,0	112,6
Yangiariq	2 303,2	103,9
Yangibozor	1 734,9	109,9

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



2021- yilning yanvar-avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 052,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **45,7 %** ga o'sdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **531,3** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 119,9 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **520,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 186,6 %) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 531,3 mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 520,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	1052,2	145,7	531,3	119,9	520,9	186,6
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	231,1	152,4	168,3	149,8	62,8	160,1
Xiva	20,3	128,2	20,3	128,3	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	151,7	150,8	26,0	101,5	125,7	167,7
Gurlan	107,4	188,8	32,0	121,9	75,5	2,5 m.
Qo'shko'pir	67,7	95,9	46,1	99,9	21,6	88,5
Urganch	-	-	-	-	-	-
Hazorasp	114,3	183,9	57,1	145,6	57,2	2,5 m.
Tuproqqal'a	24,5	169,3	21,6	159,6	2,9	3,1 m.
Xonqa	97,1	171,6	71,5	146,8	25,6	3,2 m.
Xiva	-	-	-	-	-	-
Shovot	177,8	141,0	54,0	76,8	123,8	2,2 m.
Yangiariq	32,4	81,4	17,8	66,9	14,7	110,6
Yangibozor	28,0	100,5	16,7	89,4	11,2	123,2

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
DEHQON BOZORLARI**



5,3
mlrd. so'm

Tuzlamalar



210,8
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



28,1
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)**

75,6
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



12,4
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

33,5
mlrd. so'm



Tuxum

86,2
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

24,7
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

2021- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) **11** ta hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **531,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**210,8** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

6,1
mlrd. so'm



Ziravorlar

42,9
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

5,8
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**


2021- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning **10** ta (Xiva shahri, Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **520,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **480,9** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **35,1** mlrd. so'mni, parrandalar **4,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2021- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,0 %** ni tashkil etib, **62,6** mlrd. so‘mga yetdi va 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **3,6 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **89,4 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda



	Jami, mln. so‘m	2020- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so‘m	2020- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2020- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	62 558,1	103,6	501,1	10,6	62 057,0	111,5
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	25 756,6	105,8			25 756,6	111,7
Xiva	2 260,3	106,8			2 260,3	106,8
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	2 686,3	102,3			2 686,3	102,3
Gurlan	1 884,8	103,9			1 884,8	103,9
Qo‘shko‘pir	1 117,4	103,5			1 117,4	103,5
Urganch	9 934,4	100,8	501,1	111,6	9 433,4	100,3
Hazorasp	5 160,9	102,0			5 160,9	102,0
Tuproqqal‘a	992,0	101,7			992,0	101,7
Xonqa	2 300,1	105,5			2 300,1	105,5
Xiva	1 646,6	105,9			1 646,6	105,9
Shovot	6 077,2	98,7			6 077,2	191,5
Yangiariq	1 106,6	103,0			1 106,6	103,0
Yangibozor	1 634,9	106,1			1 634,9	106,1

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

2021- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 813,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **3,0 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **510,1** mlrd. so'mni (**5,3%** ga oshdi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 303,8** mlrd. so'mni (**2,1 %** ga ko'payish) tashkil etdi.

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo

1 813,9 mlrd. so'm, 100 %


Yirik korxonalar

510,1 mlrd. so'm, 28,1 %

Mikrofirma va kichik korxonalar

1 303,8 mlrd. so'm, 71,9 %


Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Bog'ot tumani (4 487,8 m.), Gurlan tumani (1 052,7 m.), Yangibozor tumani (38,1 m.) va Hazorasp tumani (16,0 m.) da kuzatildi.

Ulgurji tovar aylanmasida yuqori o'zgarish sur'ati Gurlan (7,7 m.), Bog'ot (3,5 m.) va Xiva (142,8 %) tumanlarida qayd etildi. **Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**




	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	1 813 923,5	103,0	510 117,2	105,3	1 303 806,3	102,1
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	789 128,0	90,9	144 400,1	63,9	644 727,9	100,4
Xiva	71 395,2	101,8	601,1	124,4	70 794,1	101,6
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	46 487,7	3,5 m.	32 472,7	4487,8 m.	14 015,1	104,3
Gurlan	99 480,4	7,7 m.	69 634,9	1052,7 m.	29 845,5	2,2 m.
Qo'shko'pir	9 404,8	104,3	8,1	31,5	9 396,7	104,5
Urganch	438 799,7	110,4	209 714,7	123,5	229 085,0	100,6
Hazorasp	24 573,4	105,2	353,8	16,0 m.	24 219,7	103,7
Tuproqqal'a	9 244,5	10,8	20,8	0,0	9 223,6	104,9
Xonqa	134 474,3	142,8	51 412,1	4,5 m.	83 062,2	100,5
Xiva	115 418,1	100,9	235,2	2,3 m.	115 182,9	100,8
Shovot	30 585,0	101,1	45,5	2,4 m.	30 539,4	101,0
Yangiariq	15 162,9	107,6	205,4	6,3 m.	14 957,4	106,4
Yangibozor	29 769,3	104,5	1 012,6	38,1 m.	28 756,7	101,0

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, **1 303,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **2,1** % ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **71,9** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda Qo'shko'pir (99,9 %), Shovot (99,9 %), Xiva (99,8 %) va tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Gurlan tumani (30,0 %) va Bog'ot tumaniga (30,1 %) to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: (62) 224-65-09